



**2019 yilning yanvar-avgust oylarida  
Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish**

**RAQAMLAR**


<b>5313,8 mlrd.so'm</b> Sanoat ishlab chiqarish hajmi	<b>111,5 %</b> sanoat ishlab chiqarish indeksi
<b>3422,1 mlrd.so'm</b> Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	<b>125,8 %</b> o'sish sur'ati
<b>64,4 %</b> Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	<b>33,7 %</b> sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5313,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 111,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat - 9,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 7,4 % ni, elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash - 36,8 % ni tashkil qildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash - 16,1 % ga, kamayish kuzatildi.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.**



## **2018 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.**



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0056 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5042,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,9 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,7 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,7 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,1 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,7 %**



**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 18,7 %**



**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 18,1 %**

**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>Mahsulot turlari</b>		<i>2019 yil yanvar-avgust</i>	<i>2018 yil yanvar-avgust</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		372,5	112,8
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		72,1	87,5
Engil avtomobillar		32047	20201
Yuk avtomobilari – dona		4952	4849
Aroq – ming litr		635,4	944,0
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		14,2	11,5
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr		753,5	820,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		52075,6	48808,1
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

<b>Mahsulot turlari</b>		<i>2019 yil yanvar-avgust</i>	<i>2018 yil yanvar-avgust</i>
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		1011,8	1563,7
Milliy non (yopgan non) – tonna		526,3	135,8
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		10566,2	12915,6
Xo'jaliksovuni – tonna		4670,0	6038,0
Paxta tolasi –tonna		36323,4	44576,0
Paxta chigititonna		57385,4	69103,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Aroq 308,6 ming litrga;
2. Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lган boshqa tabiiy uzum vinolari 66,5 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Tozalangan o'simlik yog'i 2349,4 tonnaga;
5. Paxta tolasi 8252,6 tonnaga;
6. Paxta chigiti 11717,6 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-avgust oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 236,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 136,8 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 68,1 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 31,3 % ni tashkil etdi.




## 2019 yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 47,2 foiz, Urganch shahri 23,3 foiz, Shovot 5,7 foiz, Xonqa 5,5 foiz, Gurlan tumani 3,8 foizni va Bog'ot 3,2 foiz hamda eng past bo'lgan Xiva tumani 1,5 foiz, Xiva shahri 1,4 hamda 1,3 foiz Yangibozor tumaniga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




**2019 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>2019 yil yanvar-avgust</i>	<i>2018 yil yanvar-avgust</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>5313,8</b>	<b>3620,2</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,3</b>	<b>0,3</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,3	0,3
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>5042,7</b>	<b>3472,4</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	800,5	629,0
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	163,1	133,8
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	972,8	796,1
Kiyim ishlab chiqarish	17,0	40,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	6,0	4,3
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	4,2	3,2
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	11,4	11,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,6	0,6
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	12,9	9,4
Asosiy farmasevtika	4,6	4,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	57,2	48,9
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	216,4	149,2
Metallurgiya sanoati	11,9	7,3
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	98,8	100,2
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	22,6	20,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	254,1	130,1


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>2019 yil yanvar-avgust</i>	<i>2018 yil yanvar-avgust</i>
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2270,9	1275,5
Mebel ishlab chiqarish	22,7	15,4
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	81,2	85,4
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	13,4	10,0
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>236,1</b>	<b>116,6</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>34,8</b>	<b>30,9</b>

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-avgust oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.**




## Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-avgust oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 39,6 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-avgust oylarida bu ko'rsatkich 48,2 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 8,7 foizdan 7,5 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 45,1 foizdan 37,6 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 4,8 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-avgust oylarida 4,8 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2560,5 mlrd.so'mlik (1435,2 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 397,9 mlrd.so'mlik (315,7 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 1998,2 mlrd.so'mlik (1634,2 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### 2019 yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




**2018 yil yanvar- avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2886,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 109,6 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-avgust oylarida Xazorasp tumani 5903,0 ming so'mdan 2019 yil yanvar-avgust oylarida 10268,2 ming so'mga, Urganch shahri 6655,6 ming so'mdan 8728,3 ming so'mga, Xonqa tumani 1213,6 ming so'mdan 1608,8 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


**2019 yil yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)**




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 3422,1 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 125,8 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 827,1 mlrd.so'mni va 2595,0 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 106,2 foiz va 133,7 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,4 foizni (*2018 yil yanvar-avgust oylarida 75,1 foiz*) tashkil qildi.


### **2019 yil yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)**



### **2019 yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)**



## **2019 yil yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1858,8 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 123,7 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-avgust oylarida Xazorasp tumani 8077,2 ming so'mdan 2019 yil yanvar-avgust oylarida 11965,9 ming so'mga, Urganch shahri 4877,6 ming so'mdan 4852,1 ming so'mga, Gurjan tumani 1135,2 ming so'mdan 1163,7 ming so'mga Urganch tumani 811,5 ming so'mdan 856,5 ming so'mga o'sgani kuzatildi.